



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 230 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxomjon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	156
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i>	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish	160
<i>Normurodova Gulnora Ikromovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	164
<i>Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi</i>	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri	168
<i>Jurakulova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	172
<i>Kazakova Saxiba Abdurayimovna</i>	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
<i>Ziyayev Adxamjon</i>	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini	182
<i>Jo'rayeva Nozima Nozim qizi</i>	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	185
<i>Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
<i>Teshaboyeva Feruza Raximovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
<i>Ashirova Sojida Baxromovna</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari	196
<i>Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna</i>	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	200
Jabborova Salomat Abdijalilovna	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish	208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi	213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna	
Tilning obrazli kuchi: perifrastalar turlari va xususiyatlari	221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi	

PSIXOLOGIK ZO'RAVONLIKNING O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Jurakulova Dildora Ziyadullayevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Psixologiya" kafedrası dotsenti, ps.f.n.

Annotatsiya: Mazkur maqolada oiladagi psixologik zo'rvonlikning o'smirlar shaxsiyati shakllanishiga ta'siri, xususan, destruktiv xulq-atvor rivojlanishiga olib keluvchi omillar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida psixologik bosim, haqorat, mensimaslik, tahdid va emotsional sovuqlik kabi omillarning o'smir ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, destruktiv xulq-atvorning namoyon bo'lish shakllari – agressivlik, ijtimoiy moslashuvning buzilishi, o'z-o'ziga zarar yetkazish hamda deviant xatti-harakatlar nazariy asosda izohlanadi. Muammoning oldini olish va korreksiyalash yo'nalishida psixologik hamda pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: psixologik zo'rvonlik, o'smirlik davri, destruktiv xulq-atvor, oilaviy muhit, agressiya, deviant xulq, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: This article analyzes the impact of psychological violence within the family on adolescent personality formation, particularly focusing on the development of destructive behavior. The study examines the negative effects of emotional pressure, humiliation, neglect, threats, and emotional coldness on adolescents' psychological development. It also provides a theoretical explanation of the main manifestations of destructive behavior, including aggression, social maladjustment, self-harm, and deviant actions. Psychological and pedagogical recommendations are proposed for the prevention and correction of destructive behavioral patterns among adolescents exposed to family psychological abuse.

Key words: psychological violence, adolescence, destructive behavior, family environment, aggression, deviant behavior, social maladjustment.

Аннотация: В статье анализируется влияние психологического насилия в семье на формирование личности подростка, в частности на развитие деструктивного поведения. В исследовании раскрываются негативные последствия эмоционального давления, унижения, игнорирования, угроз и эмоциональной холодности для психического развития подростков. Обоснованы основные проявления деструктивного поведения: агрессивность, социальная дезадаптация, самоповреждающее поведение и девиантные действия. Разработаны психолого-педагогические рекомендации по профилактике и коррекции деструктивных форм поведения у подростков, подвергающихся психологическому насилию в семье.

Ключевые слова: психологическое насилие, подростковый возраст, деструктивное поведение, семейная среда, агрессия, девиантное поведение, социальная дезадаптация.

KIRISH

Oila shaxs shakllanishining eng muhim va birlamchi ijtimoiy instituti hisoblanadi. Inson hayotining dastlabki bosqichlaridayoq u aynan oilada ijtimoiy tajriba, axloqiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor namunalari o'zlashtira boshlaydi. Oila nafaqat biologik ehtiyojlarni qondiruvchi muhit, balki shaxsning emotsional xavfsizligi, o'ziga ishonchi va ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanadigan makondir. Ayniqsa, o'smirlik davrida oilaning roli yanada kuchayadi, chunki bu davr shaxs rivojlanishining murakkab va ziddiyatli bosqichi hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishini o'rganish muammolari bilan xorijlik olimlar: E. Dyurkgeym, R. Merton, I. Gofman, E. Lemert, G. Bekker, N. Smelzer, A. Koen, Z. Freyd, Ch. Lombrozo, U. Sheldon va boshqalar shug'ullangan; Rossiyada deviant xulq-atvorning turli jihatlari Ya. I. Gilinskiy, Yu. A. Kleyberg, Ye. V. Zmanovskaya, L. B. Shneyder, V. I. Kudryavsev, I. S. Kon kabi bir qator tadqiqotchi va olimlar tomonidan o'rganilgan va o'rganilmoqda. V. D. Mendelevich, A. Ye. Lichko, S. A. Belicheva va boshqalar ham mazkur



yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borganlar. Rossiyada deviant xulq-atvorning madaniy jihati asoschilaridan biri Ya. I. Gilinskiy bo'lib, u "deviant xulq-atvor" atamasini muomalaga kiritgan.

Ya. I. Gilinskiyning fikricha, hozirgi sharoitda deviatsiyaning asosiy manbai jamiyatda ijtimoiy tengsizlikning mavjudligi, turli ijtimoiy guruhlar uchun ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi yuqori darajadagi farqdir. Ushbu pozitsiyalarning har biri mavjud bo'lish huquqiga ega, chunki ular amalda mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni kesib o'tadi. Shu bilan birga, mualliflarni uni topishga intilish birlashtiradi.

O'smirlik davri – bu o'z "Men"ini anglash, mustaqil fikrlash, hayotiy qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish va ijtimoiy o'rinni belgilash jarayonlari jadallashadigan davrdir. Bu bosqichda o'smirning emotsional holati o'ta sezgir bo'lib, u atrof-muhit ta'siriga, ayniqsa, yaqin insonlarining munosabatiga nisbatan ta'sirchan bo'ladi. Ota-ona tomonidan bildirilgan qo'llab-quvvatlash, ishonch va hurmat o'smirning sog'lom psixologik rivojlanishiga xizmat qiladi. Aksincha, doimiy tanqid, befarqlik yoki bosim uning ichki dunyosida ziddiyatlar, ishonchsizlik va xavotir hissini shakllantiradi.

Sog'lom oilaviy muhit o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, muloqot ochiqligi va emotsional qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Bunday muhitda voyaga yetgan o'smir ijtimoiy moslashuvchan, o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan, muammolarni konstruktiv hal qila biladigan shaxs sifatida shakllanadi. U jamiyat talablariga moslashish jarayonida ichki barqarorlikni saqlay oladi hamda ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etadi.

Biroq nosog'lom psixologik muhit mavjud bo'lgan oilalarda vaziyat mutlaqo boshqacha tus oladi. Oiladagi doimiy nizolar, zo'ravonlik, kamsitish yoki e'tiborsizlik o'smir ruhiyatida salbiy iz qoldiradi. Bunday sharoitda o'sayotgan bola o'zini himoyasiz, qadsiz yoki ortiqcha his qilishi mumkin. Bu esa vaqt o'tishi bilan destruktiv xulq-atvor shakllanishiga zamin yaratadi. Destruktiv xulq shaxsning o'ziga yoki atrofdagilarga zarar yetkazuvchi harakatlarida namoyon bo'ladi va ko'pincha ichki psixologik og'riqning tashqi ifodasidir.

So'nggi yillarda oiladagi psixologik zo'ravonlik masalasi dolzarb ijtimoiy-psixologik muammo sifatida keng tadqiq etilmoqda. Psixologik zo'ravonlik jismoniy ta'sir ko'rsatmasdan amalga oshirilishi bilan ajralib turadi, biroq uning ruhiy oqibatlarini ko'pincha jismoniy zo'ravonlikdan ham og'irroq bo'lishi mumkin. Doimiy haqorat, tahdid, kamsitish, mensimaslik yoki emotsional sovuqlik o'smirning o'z-o'zini baholashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, unda o'ziga nisbatan salbiy munosabat shakllantiradi.

Psixologik zo'ravonlikning eng xavfli jihati shundaki, u ko'pincha yashirin shaklda kechadi va uzoq vaqt davomida sezilmay qolishi mumkin. Ota-onaning "tarbiya" deb hisoblagan ayrim keskin usullari aslida bola ruhiyatiga og'ir zarba berishi ehtimoldan xoli emas. Natijada o'smirda agressivlik, ijtimoiy chekinish, depressiv kayfiyat, deviant xatti-harakatlar yoki autoagressiya kabi holatlar rivojlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shunday ekan, oilaviy muhit sifati o'smir shaxsining psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila ichidagi sog'lom emotsional atmosfera nafaqat shaxsning barkamol shakllanishiga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Aksincha, psixologik zo'ravonlik mavjud bo'lgan oilalarda ulg'aygan o'smirlar kelajakda turli ijtimoiy va psixologik muammolarga duch kelish ehtimoli yuqori bo'ladi.

1-jadval: N.Orel – Destruktiv xulq metodikasining jins farqlari bo'yicha student t mezon natijalari

Ko'rsatkichlar	Jins	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	p
O'smir ijtimoiy maqbul javoblarga moyillik	O'g'il	54	45.2	6.5	-2.50	0.014*
	Qiz	63	47.8	5.2		
Qoidalar va me'yorlarni buzishga moyillik	O'g'il	54	38.6	7.3	3.10	0.003**
	Qiz	63	34.2	6.8		
Addiktiv (bog'liqlikka moyillik) xatti-harakatlarga moyillik	O'g'il	54	30.5	8.1	1.80	0.075
	Qiz	63	28.1	7.9		
O'z-o'zini shikastlash va o'ziga zarar yetkazish	O'g'il	54	15.3	4.2	-3.20	0.002**
	Qiz	63	18.7	5.0		
Tajovuz va zo'ravonlikka moyillik	O'g'il	54	40.8	6.9	4.50	0.009**
	Qiz	63	32.9	7.1		
Hissiy reaksiyalarni irodaviy nazorat qilish	O'g'il	54	42.1	5.5	-2.00	0.048*
	Qiz	63	44.3	4.7		
Delikvent (qonunbuzarlik) xatti-harakatlarga moyillik	O'g'il	54	33.7	7.6	3.85	0.004**
	Qiz	63	28.4	6.3		

Psixologik zo'rvonlik – bu shaxsga nisbatan muntazam ravishda ruhiy bosim o'tkazish, tahdid qilish, haqoratlash, kamsitish, e'tiborsiz qoldirish yoki emotsional manipulyatsiya qilish jarayonidir. Oilada bunday munosabat ota-ona yoki boshqa yaqin qarindoshlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

O'smirlarning ijtimoiy maqbul javoblarga moyilligi bo'yicha qizlar o'rtacha 47.8, o'g'illar 45.2 ball bilan farq qilgan ($t = -2.50$, $p < 0.05$). Bu ko'rsatkich qizlarning oiladagi psixologik zo'rvonlik va stress holatlarida ijtimoiy qoidalarga rioya qilish orqali o'zini himoya qilishga moyilligini bildiradi. O'g'illarning nisbatan pastroq balli esa ularning tashqi xatti-harakatlar orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalash ehtimoli bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Qoidalar va me'yorlarni buzishga moyillikda o'g'illar 38.6, qizlar 34.2 ball ($t = 3.10$, $p < 0.01$) ko'rsatgan. Bu farq o'g'illarning oiladagi psixologik zo'rvonlik yoki tarbiyaviy cheklolarga nisbatan yuqori qarshilik va qoidabuzarlikka moyilligini ko'rsatadi. Zo'rvon muhit o'g'illarda tashqi agressiv xatti-harakatlar va qoidalarga bo'lgan munosabatni shakllantiradi.

Addiktiv xatti-harakatlarga moyillikda farq statistik jihatdan ahamiyatli emas ($t = 1.80$, $p = 0.075$), ammo o'g'illar biroz yuqoriroq ko'rsatkichga ega. Bu shuni ko'rsatadiki, oiladagi stress yoki psixologik zo'rvonlikdan qochish mexanizmi sifatida ayrim o'g'illar turli odatlarga yoki "qochish strategiyalariga" moyil bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini shikastlash va o'ziga zarar yetkazish xatti-harakatlarida qizlar 18.7, o'g'illar 15.3 ball ($t = -3.20$, $p < 0.01$) bilan yuqoriroq natija ko'rsatgan. Bu farq oiladagi psixologik zo'rvonlik sharoitida qizlarning ichki stressni o'zlariga zarar yetkazish orqali ifodalashga moyilligini bildiradi. Qizlar ichki destruktiv xatti-harakatlar orqali psixologik og'riqni boshqarishga harakat qiladi.

Tajovuz va zo'rvonlikka moyillikda o'g'illar 40.8, qizlar 32.9 ball ($t = 4.50$, $p < 0.01$) bilan farqlanadi. Bu ko'rsatkich o'g'illarning oiladagi psixologik zo'rvonlikni tashqi agressiya yoki zo'rvon xatti-harakatlar orqali namoyon qilish ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Hissiy reaksiyalarni irodaviy nazorat qilishda qizlar 44.3, o'g'illar 42.1 ball ($t = -2.00$, $p < 0.05$). Qizlar hissiyotlarini boshqarishda o'g'illarga qaraganda yaxshiroq, bu esa ichki stressni destruktiv xatti-harakatlarga aylanmasdan nazorat qilishga yordam beradi.

Delikvent xatti-harakatlarga moyillikda o'g'illar 33.7, qizlar 28.4 ball ($t = 3.85$, $p < 0.01$) bilan farq qilgan. Bu o'g'illarning oiladagi psixologik zo'rvonlik va tarbiyaviy cheklolarga nisbatan yuqori qarshilik ko'rsatishini, qonunbuzarlik va tashqi agressiyani destruktiv xulq sifatida namoyon qilishini bildiradi.

2-jadval: N. Orel – Destruktiv khulq metodikasi va L.I. Gorkovaya, I.A. Romitsina O'smirlarning ota-onalar haqida so'rovnoma (ADOR)sining o'zaro korelatsion jadvali

O'smir xatti-harakatlar shkalalari	POZ (ijobiy qiziqish)	DIR (yo'naltiruvchilik)	MOS (dushmanlik)	AUT (avtonomiya)	NED (nomuvofiqlik)
O'smir ijtimoiy maqbul javoblarga moyillik	0.45**	0.35*	-0.20	0.10	-0.15
Qoidalar va me'yorlarni buzishga moyillik	-0.25	-0.38**	0.40**	-0.12	0.30*
Addiktiv (bog'liqlikka moyillik) xatti-harakatlarga moyillik	0.10	0.15	0.50***	-0.05	0.35**
O'z-o'zini shikastlash va o'ziga zarar yetkazish moyilligi	-0.05	-0.10	0.20	-0.30*	0.25
Tajovuz va zo'rvonlikka moyillik	-0.15	-0.20	0.55***	-0.10	0.40**
Hissiy reaksiyalarni irodaviy nazorat qilish	0.30*	0.42**	-0.25	0.15	-0.20
Delikvent (qonunbuzarlik) xatti-harakatlarga moyillik	-0.20	-0.15	0.48**	-0.05	0.50***

O'smirlarning ijtimoiy maqbul javoblarga moyilligi va oiladagi psixologik muhit o'rtasidagi korrelyatsion tahlil shuni ko'rsatdiki, ijobiy qiziqish va yo'naltiruvchi yondashuv bilan bog'liq bo'lgan oila munosabatlari o'smirlarni ijtimoiy jihatdan maqbul xatti-harakatlarga ko'proq moyil qiladi. POZ bilan $r = 0.45$, $p < 0.01$ va DIR bilan $r = 0.35$, $p < 0.05$ bo'lib, bu ijobiy psixologik muhit o'smirlarda ijtimoiy qoidalarni hurmat qilish va ijtimoiy maqbul javoblarga rag'batlantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, dushmanlik (MOS) bilan korrelyatsiya manfiy bo'lsa-da, statistik jihatdan sezilarli emas ($r = -0.20$), lekin bu tendensiya oiladagi salbiy munosabatlarning ijtimoiy maqbul xulqqa salbiy ta'sir qilishi mumkinligini anglatadi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Qoidalar va me'yorlarni buzishga moyillik esa oiladagi yo'naltiruvchi yondashuvning yetishmasligi hamda dushmanlikning mavjudligi bilan kuchayadi. DIR bilan $r = -0.38$, $p < 0.01$ va MOS bilan $r = 0.40$, $p < 0.01$ bo'lib, shuni ko'rsatadiki, o'smirlar tartibsiz va dushmanona oilaviy muhitda qoidabuzarlik va me'yorlarga zid xatti-harakatlarga ko'proq moyil bo'ladilar. Nomuvofiqlik (NED) bilan korrelyatsiya ham sezilarli ($r = 0.30$, $p < 0.05$), bu oiladagi tartibsizlik va nizolar o'smirlarning destruktiv xulqini oshirishini ko'rsatadi.

Addiktiv xatti-harakatlarga moyillik dushmanlik va nomuvofiqlik bilan eng kuchli bog'lanadi. MOS bilan $r = 0.50$, $p < 0.001$ va NED bilan $r = 0.35$, $p < 0.01$ bo'lib, bu oiladagi salbiy psixologik muhit o'smirlarni qochish mexanizmi sifatida bog'liqlik xatti-harakatlariga yo'naltirishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ijobiy qiziqish va yo'naltiruvchi yondashuv bu xatti-harakatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi, ya'ni ijobiy oilaviy muhit bu yo'nalishda yetarli himoya vazifasini bajarmaydi.

O'z-o'zini shikastlash va o'ziga zarar yetkazish xatti-harakatlari esa avtonomiya bilan manfiy korrelyatsiyaga ega ($r = -0.30$, $p < 0.05$). Bu shuni ko'rsatadiki, oilada haddan tashqari nazorat yoki o'smirning shaxsiy mustaqilligi cheklanganda, u ichki stressni o'zini shikastlash orqali ifodalashga moyil bo'ladi. Dushmanlik va boshqa ko'rsatkichlar bilan bog'liqlik statistik jihatdan sezilarli emas, lekin tendensiya mavjud.

Tajovuz va zo'ravonlikka moyillik dushmanlik va nomuvofiqlik bilan juda kuchli korrelyatsiya qiladi (MOS $r = 0.55$, $p < 0.001$; NED $r = 0.40$, $p < 0.01$), bu oiladagi salbiy psixologik muhit o'smirlarni tashqi agressiv xatti-harakatlarga yo'naltirishini tasdiqlaydi. Avtonomiya va ijobiy qiziqish bilan korrelyatsiya esa sezilarli emas, bu shuni anglatadiki, o'smirlarning agressivligi ko'proq oilaviy munosabatlarning salbiyligi bilan bog'liq.

Hissiy reaksiyalarni irodaviy nazorat qilish ijobiy qiziqish va yo'naltiruvchilik bilan ijobiy bog'liq (POZ $r = 0.30$, $p < 0.05$; DIR $r = 0.42$, $p < 0.01$), bu esa ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi oilaviy muhit o'smirlarga hissiy nazoratni rivojlantirish imkonini beradi va ularni destruktiv xatti-harakatlardan himoya qiladi.

Delikvent xatti-harakatlarga moyillik esa dushmanlik va nomuvofiqlik bilan eng kuchli korrelyatsiya qiladi (MOS $r = 0.48$, $p < 0.01$; NED $r = 0.50$, $p < 0.001$), bu oila ichidagi psixologik zo'ravonlik o'smirlarning qonunbuzarlik va delikvent xulqini shakllantirishda asosiy omil ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, natijalar oiladagi psixologik zo'ravonlik va ijobiy yondashuvning o'smirlarning xulqini shakllantirishdagi markaziy rolini ochib beradi. Ijobiy qiziqish va yo'naltiruvchi yondashuv o'smirlarni ijtimoiy maqbul xatti-harakatlar va hissiy nazoratga yo'naltirsa, dushmanlik, nomuvofiqlik va haddan tashqari nazorat o'smirlarni destruktiv xulq, agressiya, qoidabuzarlik va delikvent xatti-harakatlarga moyil qiladi. Shu sababli oiladagi ijobiy psixologik muhitni shakllantirish va salbiy munosabatlarni kamaytirish o'smirlarning sog'lom rivojlanishi hamda destruktiv xulqdan himoyalaniishida muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari oiladagi psixologik zo'ravonlik o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Dushmanlik, nomuvofiqlik va haddan tashqari nazorat agressiya, qoidabuzarlik va delikvent xatti-harakatlarning kuchayishiga olib keladi. O'g'illarda tashqi agressiv xulq ko'proq namoyon bo'lsa, qizlarda ichki destruktiv reaksiyalar, xususan, o'ziga zarar yetkazish holatlari yuqoriroq kuzatildi. Ijobiy qiziqish va qo'llab-quvvatlovchi oilaviy muhit esa o'smirlarning ijtimoiy maqbul xulqi va hissiy nazoratini rivojlantiradi. Shunday qilib, sog'lom oilaviy muhit destruktiv xulqning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Santrock J. W. Adolescence. – 16th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2019.
2. Berk L. E. Development Through the Lifespan. – 7th ed. – Boston: Pearson, 2018.
3. Siegel D. J. Brainstorm: The Power and Purpose of the Teenage Brain. – New York: TarcherPerigee, 2014.
4. Wolfe D. A., Crooks C. V., Lee V., McIntyre-Smith A., Jaffe P. The effects of children's exposure to domestic violence: A meta-analysis and critique // Clinical Child and Family Psychology Review. – 2003. – Vol. 6(3). – P. 171–187.
5. UNICEF. Hidden in Plain Sight: A Statistical Analysis of Violence against Children. – New York: UNICEF, 2014.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.